



## **Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Talabalar kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida**

### **NIZOM**

#### **I BOB. UMUMIY QOIDALAR**

1. Mazkur Nizom Termiz iqtisodiyot va servis universiteti (keyingi o'rinda — Universitet) Talabalar kengashining (keyingi o'rinda — Kengash) tashkil etilishi, faoliyat yuritishi, vazifalari, huquq va majburiyatlari belgilaydi.

2. Kengash — talabalarning o'z-o'zini boshqarish organi bo'lib, u universitet talabalarining manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

3. Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, Universitet Nizomi, Ichki tartib qoidalari, Odob axloq kodeksi hamda ushbu Nizom talablari asosida amalga oshiradi.

4. Kengash o'z faoliyatini mustaqillik, oshkoralik, demokratiya va qonuniylik tamoyillari asosida olib boradi.

5. Kengash yuridik shaxs hisoblanmaydi va Universitet tarkibida faoliyat yuritadi.

#### **II BOB. KENGASHNING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI**

6. Kengashning asosiy maqsadi - talabalar manfaatlarini himoya qilish, ularning takliflarini universitet rahbariyatiga yetkazish va har tomonlama rivojlanishlari uchun qulay sharoit yaratishdir.

7. Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) talabalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- b) talabalar va universitet ma'muriyati o'rtasida samarali aloqa o'rnatish;
- c) ta'lim sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va universitet rahbariyatiga taqdim etish;
- d) talabalar orasida ilmiy, madaniy, sport va ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish;
- e) talabalar orasida intizom, axloqiy tarbiyani mustahkamlash hamda ma'naviy muhitni shakllantirish;

- f) talabalarning liderlik, tashkilotchilik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish;
- g) ko'ngillilik (volontyorlik) harakatlarini tashkil etish va rivojlantirish;
- h) talabalar turar joyi va umumiy ovqatlanish masalalarida talabalar manfaatlarini ifodalash;
- i) kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarga ko'maklashish;
- j) universitet an'alarini shakllantirish va rivojlantirishda faol ishtirok etish.

### **III BOB. KENGASH A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

8. Kengash a'zolarining huquqlari:

- a) Kengash yig'ilishlarida ovoz berish;
- b) Kengash rahbariyatiga saylov va saylanish huquqiga ega bo'lish;
- c) Kengash faoliyatiga doir masalalar bo'yicha takliflar kiritish;
- d) Universitet rahbariyati bilan uchrashuvlar tashkil etish va ishtirok etish;
- e) Kengash tomonidan tashkil etiladigan barcha tadbirlarda ishtirok etish;
- f) o'z faoliyati haqida ma'lumot olish.

9. Kengash a'zolarining majburiyatlari:

- a) universitet Nizomi, Ichki ratib qoidalari, odob axloq kodeksi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilish;
- b) Kengash yig'ilishlarida muntazam ishtirok etish;
- c) o'ziga yuklatilgan vazifalarni vijdonan, sifatli va o'z vaqtida bajarish;
- d) universitet obro'-e'tiborini yuqori darajada saqlash;
- e) talabalar orasida do'stona muhit yaratishga ko'maklashish;
- f) Kengash qarorlariga bo'ysinish va ularni bajarishda faol ishtirok etish.

### **IV BOB. KENGASHNING TASHKILY TUZILMASI**

10. Kengash quyidagi tarkibdan iborat:

- a) Kengash raisi;
- b) Kengash raisi o'rinbosarlari (2 nafar);
- c) Kengash kotibi;
- d) Qo'mita rahbarlari;
- e) Fakultet vakillari;
- f) Kengash a'zolari.

11. Kengash quyidagi doimiy qo'mitalardan tashkil topadi:

- a) Ta'lim sifati va ilmiy faoliyat qo'mitasi;
- b) Madaniy-ma'rifiy ishlar qo'mitasi;
- c) Sport va sog'lom turmush tarzi qo'mitasi;
- d) Ijtimoiy masalalar va volontyorlik qo'mitasi;

e) Axborot va ommaviy aloqalar qoʻmitasi;

f) Intizom va nazorat qoʻmitasi.

12. Har bir fakultetda fakultet talabalar kengashi tashkil etiladi. Fakultet talabalar kengashi raisi bir vaqtning oʻzida Universitet Talabalar kengashi aʼzosi hisoblanadi.

#### **V BOB. KENGASH RAISING VAZIFALARI VA VAKOLATLARI**

13. Kengashga Kengash raisi rahbarlik qilib, talabalar orasidan 1 (bir) yil muddatga saylanadi.

14. Kengash raising vazifalari:

a) Kengash faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish;

b) Kengash yigʻilishlarini chaqirish va olib borish;

c) Kengash nomidan universitet rahbariyati, tashqi tashkilotlar bilan munosabatlar oʻrnatish;

d) Kengash faoliyati boʻyicha hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish;

e) Qoʻmitalar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

f) Zarur hollarda favqulodda yigʻilishlar chaqirish.

15. Kengash raisi yoʻqligida uning vazifalari rais oʻrinbosarlari tomonidan amalga oshiriladi.

#### **VI BOB. KENGASH YIGʻILISHLARI VA QAROR QABUL QILISH TARTIBI**

16. Kengash yigʻilishlari har oyda kamida 1 (bir) marta oʻtkaziladi. Zarurat boʻlganda favqulodda yigʻilishlar chaqirilishi mumkin.

17. Yigʻilish Kengash aʼzolarining kamida 2/3 qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

18. Qarorlar yigʻilishda ishtirok etayotgan aʼzolarining oddiy koʻpchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng boʻlganda Kengash raising ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

19. Kengash yigʻilishlarining bayonnomasi kengash kotibi tomonidan yuritiladi va barcha aʼzolarga yetkaziladi.

20. Kengash qarorlari universitetning barcha talabalari uchun tavsiyaviy xarakterga ega boʻlib, universitet maʼmuriyati bilan kelishilgan qarorlar majburiy kuchga ega boʻladi.

#### **VII BOB. KENGASH AʼZOLIGIGA QABUL QILISH VA CHIQARISH TARTIBI**

21. Kengash aʼziligiga akademik oʻzlashtirishi qoniqarli boʻlgan, intizomiy jazo olmagan, Kengash faoliyatida faol ishtirok eta oladigan, Universitet talabasi aʼzo boʻlishi mumkin.

22. Quyidagi kengash aʼzolidan chiqariladi:

a) talabaning oʻz arizasi asosida;

b) Belgilangan tartibda o'qishdan chetlatilganda, o'qishini boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirganda;

c) Universitetni tamomlaganda;

d) Kengash yig'ilishlariga ketma-ket 3 marotaba ishtirok etmaganda (uzrli sabablar bilan ishtirok etmaslik bundan mustasno);

i) Kengash qarorlariga zid harakat qilganda;

e) Universitetning ichki tartib-qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim kodeksi talablarini buzganda/

23. A'zolikdan chiqarish to'g'risidagi qaror Kengash yig'ilishida muhokama qilinadi va ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

### **VIII BOB. KENGASHNING BOSHQA TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIGI**

24. Kengash quyidagi tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi:

a) O'zbekiston Yoshlar ittifoqi universitet yetakchilari;

b) Universitet kasaba uyushmasi;

c) Universitet ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi;

d) Fakultet dekanliklari;

e) Boshqa oliy ta'lim muassasalarining talabalar kengashlari;

f) Mahalliy hokimiyat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari.

### **IX BOB. KENGASH FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH**

25. Kengash faoliyati quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

a) Universitet byudjeti doirasida ajratilgan mablag'lar;

b) homiylik va xayriya mablag'lari;

c) grant loyihalari doirasida olingan mablag'lar;

d) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

26. Mablag'lardan foydalanish Kengash yig'ilishida muhokama etiladi va hisobot berish tartibi belgilanadi.

### **X BOB. KENGASH FAOLIYATINING HISOBDORLIGI**

27. Kengash o'z faoliyati to'g'risida har chorakda universitet rahbariyatiga hisobot taqdim etadi.

28. Kengash raisi yillik hisobotni talabalar umumiy yig'ilishida taqdim etadi.

29. Kengash faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar universitet rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilinadi.


### **XI BOB. YAKUNIY QOIDALAR**

30. Ushbu Nizom Universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi.

31. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Universitet rahbariyati tomonidan kiritilishi mumkin.

**KELISHILDI:**

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor**




**U. Xudayberdiyev**

**Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i**



**U. Choriyev**

**Xodimlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i**



**Yu. Xaqqulov**

**Bosh yuriskonsult**



**R. Rizaqulov**